<p><i>In vitro</i> usulida istiqbolli mahalliy yong‘oq navlarining bakterial shish (<i>Agrobacterium tumefaciens</i>) kasalligiga chidamli ko‘chatlarini yetishtirish va plantasiyalar yaratish</p>  <p>1. <i>In vitro</i> klonal ko‘paytirish bosqichi</p>  <p>2. Iqlimlashtirish bosqichi</p>  <p>3. <i>In vitro</i> usulda yetishtirilgan ko‘chatlardan tashkil topgan plantasiyalar Ilmiy rahbar: b.f.n., dosent Alikulov B.S.</p>	<p>Tadqiqot shakli: <i>amaliy bo‘lib</i>, butun dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lgan yong‘oq navlari O‘zbekiston iqlimiga to‘liq moslasha olmasligini hisobga olgan holda, mamlakatimiz turli hududlarida yovvoyi va madaniy holda o‘sayotgan turli navlar orasidan, sovuqqa va turli kasalliklarga chidamli navlarini tanlab olish va <i>in vitro</i> usulda ko‘paytirish lalmi yerlardan foydalanishni rag‘batlantirish va samaradorligini yanada oshirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lgan yong‘oq ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga yordam beradi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari: O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot Institutida tashkil etilgan mahalliy yong‘oq navlari va formalari kolleksiyasidan serhosil, kasalliklarga va sovuqqa chidamli, meva sifati jixatidan jahon standartlariga mos keladigan, bakterial rak kasalligiga chidamli navlar tanlab olinadi va ularni <i>in vitro</i> usulda mikroklonal ko‘paytiriladi va bakterial rak kasalligiga chidamli, genetik jihatdan bir xil bo‘lgan ko‘chatlar yetishtiriladi. Ushbu ko‘chatlar asosida plantasiyalar tashkil etiladi va ichki va tashqi bozor uchun raqobatdosh mevalar yetishtiriladi.</p> <p>Natijalarni sinovdan o‘tkazish va joriy qilish: Istiqbolli va bakterial rak kasalligiga chidamli mahalliy yong‘oq navlarini to‘qima kulturasi asosida <i>in vitro</i> usulda ko‘paytirish qisqa vaqt ichida ko‘paytirish va ushbu jarayonda materiallarning genetik o‘ziga xosligini saqlab qolish imkonini beradi, <i>in vitro</i> usulda ko‘paytirilgan ko‘chatlar yong‘oq plantasiyalariga ega bo‘lgan fermer xo‘jaliklariga yetkazib beriladi, natijada har yili chet davlatlardan ko‘chat sotib olishga sarflangan mablag‘ tejaladi. <i>In vitro</i> usulda ko‘paytirilgan ko‘chatlar erta hosilga kiradi, daromadi yuqori bo‘ladi va ko‘chatlar genetik jihatdan bir xil bo‘lganligi uchun, ularni parvarishlash nisbatan oson bo‘ladi; kasallangan ko‘chatlarga ishlov berish uchun qo‘llaniladigan kimyoviy vositalar va jarayonlardan voz kechiladi va ularga sarflanadigan mablag‘ tejaladi, tuproq ifloslanishi oldi olinadi, ekologik toza mahsulot yetishtiriladi.</p> <p>So‘ngra, <i>in vitro</i> usulda ko‘paytirilgan mahalliy yong‘oq navlari ko‘chatlarini parvarishlash agrobiotexnologiyasi ishlab chiqiladi. Yosh mutaxassislar jalb etilib, olib borilgan tadqiqotlar asosida falsafa doktori (PhD) dissertasiysi bajariladi va himoya etiladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalari bo‘yicha intellektual mulk obyektlariga tegishli hujjatlar olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi ro‘yxatidagi va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksasiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.</p>	1,8 mlrd so‘m

*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi 1.8 mlrd so‘m va bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan.

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq amaliy va innovasion loyihibar tanlovi
mavzusini shakllantirish bo'yicha**
ASOSNOMA

1. Davlat buyurtmasi bo'yicha e'lon qilinadigan ilmiy loyihibar tanloviga tavsiya etilayotgan mavzu nomi	<p><i>In vitro</i> usulida istiqbolli mahalliy yong'oq navlarining bakterial shish (<i>Agrobacterium tumefaciens</i>) kasalligiga chidamli ko'chatlarini yetishtirish va plantasiyalar yaratish.</p> <p>Выращивание сеянцев перспективных местных сортов грецкого ореха, устойчивых к бактериальной опухоли (<i>Agrobacterium tumefaciens</i>) <i>in vitro</i> и создание плантаций.</p> <p>Cultivation of seedlings of promising local walnut varieties resistant to bacterial tumor (<i>Agrobacterium tumefaciens</i>) <i>in vitro</i> and creating plantations</p>
2. Yo'llanma xat raqami va sanasi	
3. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (ilmiy tashkilot nomi)	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
4. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovasion loyihibar natijalari tahlili	Shu kunga qadar istiqbolli va bakterial shish (<i>A. tumefaciens</i>) kasalligiga chidamli mahalliy yong'oq navlarini <i>in vitro</i> usulida mikroklonal ko'paytirish bo'yicha loyihibar bajarilmagan. Butun dunyo bo'ylab mashhur bo'lgan yong'oq navlari, jumladan Chandler navi asosida 2017-2020 yillarda Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlarida plantasiyalar tashkil etilgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ushbu navlar O'zbekiston iqlimiga to'liq moslasha olmadi, ya'ni erta kuzgi sovuqda zararlanish va turli kasalliklar (bakterial rak va h.k) bilan kasallanish foizi yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi. Shu sababdan, mamlakatimiz turli hududlarida o'sayotgan turli mahalliy navlar orasidan, sovuqqa va turli kasalliklarga chidamli navlar tanlab olingan, ammo ularni <i>in vitro</i> usulda ko'paytirish texnologiyasi ishlab chiqilmagan.
5. Qo'lga kiritilishi rejalshtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi	O'zbekistonda keng tarqalgan mahalliy yong'oq navlari va formalari orasidan bakterial rak kasalligiga chidamli navlar tanlanadi, ularni <i>in vitro</i> usulda ko'paytirishning optimal sharoitlari ishlab chiqiladi hamda ushbu texnologiya asosida ko'chatlar yetishtiriladi. Mazkur texnologik jarayonni amalga oshirish orqali xorijiy davlatlardan ko'chat sotib olishga sarflangan mablag' 60% gacha tejaladi, shuningdek, ko'chatlarning bakterial shish bilan kasallanish darajasi 80 % gacha kamayadi. Ko'chatlar kasallanishining kamayishi sababli, hosildorlik 25-30% gacha ortadi.
6. Ehtiyoj (talab) ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar	Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-2020 yillarda Samarqand va Jizzax viloyatlarida Chandler navi asosida 10 ming hektardan ortiq maydonda plantasiyalar yaratilganligi inobatga olinganda, istiqbolda faqat Samarqand viloyatining adir hududlarida kamida 5 ming hektar yong'oqzorlar barpo etish rejalshtirilgan. Shuningdek, ushbu hududlardagi aholining shaxsiy tomoqalari uchun ham tezpishar, kasallikdan holi ko'chatlarga ehtiyoj yuqori.
7. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya) ning xorijiy analoglaridan qiyosiy	Yaratiladigan ko'chatlar o'zining xorijiy va mahalliy analoglaridan quyidagi ijobjiy xususiyatlari bilan farqlanadi: mahalliy navlar asosida yaratiladi; bakterial shish kasalligiga chidamli;

ustunligini indikatorlar	ko‘rsatuvchi	arzon.
8. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/ xom- ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi		Yangi ishlanmani bajarishda amaliy tajribalar SamDU Molekulyar biotexnologiya ilmiy-tadqiqot laboratoriysi va SAG AGRO MChJ Bog‘bon <i>in vitro</i> laboratoriysi bilan hamkorlikda olib boriladi. Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida 1 hektar va Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida 2 hektar, jami 3 hektar maydonda plantasiyalar tashkil etiladi.
9. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi		Taklif etilayotgan loyihaning moliyalashtirish hajmining ikki yillik smetasi ilova qilinadi.
10. Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo‘jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi		O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi.

Izoh: tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu asosnomasi zarur hollarda ilmiy tashkilot (mavzu tashabbuskori) ning yuqori turuvchi vazirlik/idorasiga tomonidan tashkil etiladigan muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasi natijalariga ko‘ra ishlab chiqilishi mumkin.

**Asosnomani shakllantirishga
mas’ul ekspert – vazirlik (idora) ning
mas’ul xodimi (FIO, lavozimi)**

_____ (imzo)


**Vazirlik (idora)ning mas’ul
tuzilmasi (boshqarmasi) boshlig‘i, (FIO)**

_____ (imzo)

sana

“ ____ ” 20 ____ y.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan innovatsion va amaliy loyihamoqarabonligi
taklif etilayotgan ilmiy-texnik loyiha

Ilmiy-texnik loyiha Mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija	Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi
<p>Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom maqsadli kolleksiyasini shakllantirish va bug‘doy seleksiyasi uchun potensial manbalarni yaratish</p>  <p>I.Sh.Djabbarov, SamDU; S.K.Baboyev, O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental ITI</p>	<p>Tadqiqot shakli: mahalliy <i>Aegilops</i> L., turlarning maqsadli kolleksiyasini shakllantirish, introduksiyalash, saqlash va yumshoq bug‘doyni yaxshilashda qimmatli xo‘jalik belgilarning potensial manbalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy loyiha amalga oshiriladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Tadqiqotlar natijasida mahalliy <i>Aegilops</i> L., turkumi D- genom turlarning geografik tarqalish haritalari GAT – texnologiyasi asosida yaratiladi. - Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkumi turlarining D- genom kolleksion namunalarini introduksiyaladi, ko‘paytiriladi va saqlash uchun genbank tashkil etiladi. - Mahalliy <i>Aegilops</i> L., D- genom turlarning fenotip va genotip darajasida xilma-xilligini baholanib, qimmatli xo‘jalik belgilarning potensial manbalari ajratiladi. - SSR markerlar yordamida D- genom kolleksiya namunalarini genetik pasportlari yaratiladi. - Bug‘doy seleksiyasining turli yo‘nalishlari (yuqori hosildorlik, ertapisharlik, kasallik va zararkunandalarga chidamlilik, don sifat kursatkichlari va b.) uchun respublika ilmiy markazlarini birlamchi materiallar bilan ta’minlash hamda seleksiya, biotexnologiya, bug‘doy xususiy genetikasi va urug‘chiligida foydalanish imkonini beradi. - Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom namunalari asosida yangi mahaliy tuproq-iqlim sharoitlarida moslashgan yangi navlarini yaratish, kontinental iqlim sharoitida turg‘un hosil bera olish kabi xususiyatlari bilan, chetdan olib kelayotgan navlardan ustun turadi. - <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genomi asosida yaratilgan yangi yumshoq bug‘doy navlari urug‘lik tannarxini pasayishiga imkon beradi. Chetdan kelayotgan urug‘likka nisbatan har kilosiga 8-10 ming so‘m iqtisod qilinadi. Loyiha yakunida olingan seleksion manbalari asosida import o‘rnini bosuvchi yangi yumshoq bug‘doy navlarini yaratish imkonini beradi. <p>Natijalarni sinovdan o‘tkazish va joriy qilish:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Mahalliy <i>Aegilops</i> L., turkum turlarining D- genom maqsadli kolleksiya namunalarini introduksiyalash, ko‘paytirish va saqlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ajratilgan qimmatli xo‘jalik belgilarning potensial manbalari, molekulyar genetika va bug‘doy amaliy seleksiyasi tadqiqotlarida foydalanihib, yumshoq bug‘doyni yaxshilash milliy dasturi uchun biotik va abiotik stresslarga chidamlari yaratiladi. -Tadqiqotlar natijasida falsafa fanlari doktori dissertatsiya ishlari (PhD) himoya qilinadi. <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalari bo‘yicha intellektual mulk ob’ektlariga tegishli hujjatlar olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi va Web of Science hamda Ssopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.</p> 	0,5 mlrd. so‘m

* Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi 1,5 mlrd so‘m va bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi mavzusini shakllantirish bo'yicha
ASOSNOMA

1. Davlat buyurtmasi bo'yicha e'lon qilinadigan ilmiy loyihalar tanloviga tavsiya etilayotgan mavzu nomi	Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom maqsadli kolleksiyasini shakllantirish va bug'doy seleksiyasi uchun potensial manbalarni yaratish Формирование целевой коллекции D-генома местных видов <i>Aegilops</i> L. и создание потенциальных ресурсов для селекции пшеницы. Formation of D-genome target collection of local <i>Aegilops</i> L. species and creation of potential resources for wheat selection.
2. Yo'llanma xat raqami va sanasi	
3. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (<i>ilmiy tashkilot nomi</i>)	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti
4. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili	Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom turlari bug'doy seleksiyasida qimmatli xo'jalik belgilarni biotik va abiotik stresslarga chidamliligini yaxshilash uchun muhim manba hisoblanadi. O'zbekistonda mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D-genom turlari kuchli immunitetga ega bo'lib, yumshoq byg'doy genomini boyitish uchun muhim genetik resurs hisoblanadi. Ushbu tur vakillarining geografik tarqalishi, biologik, genetik xilma-xilligi va seleksion jihatidan yetarlicha darajada o'rganilmagan hamda kichik hajmdagi kolleksiyalarda yig'ilgan. Loyiha sifatida o'rganilmagan.
5. Qo'lga kiritilishi rejajashtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi	Tadqiqotlar natijasida mahalliy <i>Aegilops</i> L., turkumi D-genom turlarning geografik tarqalish haritalari GAT – texnologiyasi asosida yaratiladi. Mahalliy <i>Aegilops</i> L., D-genom turlarning fenotip va genotip darajasida xilma-xilligini baholash va qimmatli xo'jalik belgilarning potensial manbalari va donorlarini ajratiladi. SSR markerlar yordamida <i>Aegilops</i> L., D- genom kolleksiya namunalari genotiplanadi va genetik pasportlari yaratiladi. Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom turlarini maqsadli kolleksiyasi asosida qimmatli xo'jalik belgilarning potensial manbalarini ajratib, respublikada azaldan yetishtiriladigan yumshoq bug'doy navlarining genetik bazasini boyitish hamda yangi adaptiv, serhosil va don sifati yuqori bo'lgan yumshoq bug'doy navlarini yaratishga imkon beradi.
6. Ehtiyoj (talab) ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar	Bugungi kunda Respublikada ekilayotgan bug'doy navlarining 70% dan ortig'i Rossiya seleksiyasiga mansub biolok qishki bug'doylar bo'lib, genotipik jixatdan bir-biriga yaqin. Respublikada bug'doy urug'chiligidagi har yiliga 5000 tonna orignal urug' kerak bo'ladi va shunda atigi 500 tonnaga yaqini Respublikada tayyorlanadi, qolgan urug'lik esa chetdan keltiriladi. Bu juda katta mablag' sarf qilishni talab etadi va yetishtirilayotgan bug'doy tannarxining oshishiga sabab bo'lmaoqda. Shu munosabat bilan ob-xavo

	noqulay kelganda barcha bug‘doy navlarida bir xil zang kasalliklari tarqalishi yoki issiqdan zarar ko‘rishi kuzatilmogda. Mahalliy seleksiyada esa bu kasallikka chidamli hamda yuqori haroratga bardoshli navlar yaratish uchun boshlang‘ich ashyo yetarli emas. Bug‘doyning D-genomga tegishli bo‘lgan <i>Aegilops</i> L., turkumi vakillari esa zang kasalliklariga o‘ta chidamli va yuqori haroratga bardoshli. Lekin bu turkum vakillari O‘zbekiston sharoitida yaxshi o‘rganilmagan va bugungi seleksiya jarayonida qo‘llash uchun katta ehtiyoj mavjud.
7. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya) ning xorijiy analoglaridan qiyosiy ustunligini ko‘rsatuvchi indikatorlar	Mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genom maqsadli kolleksiyasi asosida yangi mahaliy tuproq-iqlim sharoitlarida moslashgan yangi navlarini yaratish, kontinental iqlim sharoitida turg‘un hosil bera olish kabi xususiyatlari bilan, chetdan olib kelayotgan navlardan ustun turadi. <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining D- genomi asosida yaratilgan yangi yumshoq bug‘doy navlari urug‘lik tannarxini pasayishiga imkon beradi. Chetdan kelayotgan 1 kg urug‘lik o‘rtacha 20 000 so‘mdan fermerlarga sotilayotgan bo‘lsa, o‘zimizda yetishtirilgan orginal urug‘lar 10-12 ming so‘mni tashkil etadi. Loyiha yakunida olingan seleksion manbalar asosida import o‘rnini bosuvchi yangi yumshoq bug‘doy navlarini yaratish imkonini beradi.
8. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/ xom-ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi	Ushbu loyihani amalga oshirish uchun birlamchi material sifatida, mahalliy <i>Aegilops</i> L. turkum turlarining namunalari mavjud. Shuningdek, zamonaviy laborotoriya va yetakchi mutaxassislar faoliyat olib boradi.
9. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi	Taklif etilayotgan loyihaning moliyalashtirish hajmining uch yillik smetasi ilova qilinadi.
10. Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo‘jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’alim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi

Izoh: tanlovgaga tavsiya etilayotgan mavzu asosnomasi zarur hollarda ilmiy tashkilot (mavzu tashabbuskori) ning yuqori turuvchi vazirlik/idorasi tomonidan tashkil etiladigan muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasi natijalariga ko‘ra ishlab chiqilishi mumkin.

Asosnomani shakllantirishga mas’ul ekspert – vazirlik (idora) ning mas’ul xodimi (FIO, lavozimi)

(imzo)

Vazirlik (idora)ning mas’ul tuzilmasi (boshqarmasi) boshlig‘i, (FIO)

(imzo)

sana

“_____” **20** _____ y.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan innovatsion va amaliy loyihamo tanloviiga
taklif etilayotgan ilmiy-texnik loyiha**

Ilmiy-texnik loyiha mavzusি	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija	Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi
<p>Zarafshon milliy tabiat bog‘i flora va faunasini muhofaza qilishning ekologik asoslari</p> <p>Professor. E.E.Kobilov</p>	<p>Tadqiqot shakli: amaliy bo‘lib, Zarafshon milliy tabiat bog‘i sharoitida flora va faunaning noyob bioresurs sifatida holatini tiklash, o‘simliklarning genetik banki va yetishtirish asolarini yaratish hamda ekologik jihatdan ilmiy asoslash maqsadida keng qamrovli g‘oyalarni o‘zida shakllantirgan va amaliy asoslari bilan mustahkamlangan analogi yo‘q, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishni mutoq taqozo etadi. Bu borada mammalakatimiz Rossiya, Belarus, Qirg‘iziston va Tojikistonning yetakchi ilmiy markazlari bilan tadqiqotlar hamkorlikda olib borish rejalashtiriladi. Xususan, an‘anaviy oraliq, oziq-ovqat va sanoat xomashyosi sifatida o‘stirishning zamonaevi usullari tadqiq qilinib, ular amaliyotga joriy etiladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <p>Yangi O‘zbekistonda jumladan, Samarqand viloyatida so‘ngi 5 yilda aholi salomatligini tubdan muhofaza qilish va yil bo‘yi ekologik toza mahsulotlar bilan bir maromda ta’minlash muhim vazifa qilib belgilangan. Tarixiy ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki Zarafshon milliy tabiat bog‘i buyok munajjim va odil shoh Mirzo Ulug‘bek hazratlarining shaxsan tashabbuslari bilan tashkil etilgan bo‘lib, o‘sha davrdayoq uni bus-butun qatiyy himoya qilish va o‘rganish jihatlariga olimlar va hamda mutaxassislar jalb qilingan. Boz ustiga, uni obi hayot bilan ta’minlash maqsadida bobomiz nomi bilan atalgan va hozirda saqlanib qolgan Mirza ariq o‘zani milliy bog‘ hududiga yo‘naltirilgan bo‘lsa uning shimol qismida taxminan 1,5-2 km masofada joylashgan qadimiy chashma yerlik aholini ichimlik suvi bilan ta’minlangan.</p> <p>Afsuski, hozirda aholini moddiy ne’matlar va noyob dorivor o‘simliklar hamda to‘qayzor plantatsiyalari barpo qilish borasida biologik, agro-ekologik va texnologik usullari ishlab chiqilmaganligi hamda amaliyotga joriy etilmaganligi muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu maqsadda flora va fauna bioresurslarining noyob turlarini ko‘paytirish, yo‘q bo‘lib ketgan vakillariga baho berish, suv zaxiralari, tuproq omillarini baholash xususiyatlari o‘rganilib ular ilmiy jihatdan asoslanadi.</p> <p>Mamlakatimizda dorivor o‘simliklar va mahsulotlarga ega bo‘lgan ehiyoj yuqor ekanligini hisobga olgan holda ularning bioxilma-xilligini muhofaza qilish, zahiralarini aniqlash, terish va tayyorlash uchun kvotalarini belgilash yoki introdutsent (o‘zga floralarga mansub o‘simliklar)</p>	<p>1,0 mlrd. so‘m</p>

turlarni o'stirish, ko'paytirish, agrotexnologik asoslarini ishlab chiqish hamda plantatsiyalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy farmatsevtika ehtiyojini qoplash va eksportbop tabiiy dorivor vositalar ishlab chiqarishni tizimini yaratishni yo'lga qo'yish dolzarb muammo hisoblanadi.

Olingen natijalarni sinovdan o'tkazish va joriy qilish:

-Zarafshon milliy tabiat bog'i flora va faunasi vakillari ilmiy asosda tahlil etilib o'rganiladi va olingen natijalar O'rta Zarafshon hudududida keng joriy etish chora-tadbirlari amalgamoshiriladi.

Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etiladi. Shuningdek, ilmiy asoslangan ma'lumotlar va ishlab chiqilgan texnologik usullarga tayangan holda ilmiy tavsiyaviy, o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklar sifatida o'quv jarayonida foydalanadi.

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi 1,0 mlrd. so'm va bajarilishi bir yilga mo'ljallangan.*

**Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq amaliy va innovatsion loyihami
tanlovi mavzusini shakllantirish bo'yicha**

ASOSNOMA

1. Davlat buyurtmasi bo'yicha e'lon qilinadigan ilmiy loyihami tanloviga tavsiya etilayotgan mavzu nomi	Zarafshon milliy tabiat bog'i flora va faunasini muhofaza qilishning ekologik asoslarini yaratish. Экологические основы охраны флора и фауны Зеравшанского национального природного парка. Ecological basis of protection of flora and fauna of Zarafshan National Nature Park.
2. Yo'llanma xat raqami va sanasi	
3. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (<i>ilmiy tashkilot nomi</i>)	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
4. Taklif etilayotgan mavzu doirasida avval bajarilgan, bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihami natijalari tahlili	Zarafshon milliy tabiat bog'idan yil bo'yli innovatsion foydalanish negizida noyob flora va fauna turlarini saqlash va ko'paytirish, mintqa misolida ularning ekologo-biologik qonuniyatlari o'rganiladi va zamonaviy usullari amalda o'z tasdig'ini topadi. Bu borada fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarning ilmiy – amaliy asoslari yaratiladi.
5. Qo'lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya) ning tavsifi	Tabiiy va sun'iy landshaftlarning an'anaviy, yangi turlari, nav namunalarining tuproq-iqlim va ekologik sharoitga mos jihatlari, biologik ustunliklari negizida yil bo'yli, uzlusiz foydalanish zahirasi yaratiladi. Natijada, ularning biologik ustunligi va ekologik afzalligi ro'yobga chiqarilib, innovatsion usullarining samaradorligi o'z isbotini topadi.
6. Ehtiyoj (talab)ning mavjudligi (yetarliligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar	Zarafshon milliy tabiat bog'i hududida yil davomida an'anaviy bir hosilli tizim hozirga qadar flora va fauna bioxilma-xilligiga monelik ko'rsatmoqda. Ayni paytda, kuz va qish ekinlari evaziga sug'oriladigan yerlarda resurstejamkor, sifatli va barqaror hosil yetishtirishning zamonaviy imkoniyatlari yuzaga keladi.
7. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya) ning xorijiy analoglaridan qiyosiy ustunligini ko'rsatkichlar indikatorlar	Mazkur ishlanma natijalaridan mintaqada foydalanishda intensive agro-biotexnologiyalarining yaratilishi qo'shni va xorij davlatlar amaliyotida yer, suv, flora va fauna turlari zahirasining analogi yo'qligi bilan farqlanadi.
8. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot (xizmat) ishlab chiqarishning resurs (xom-ashyo) bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi	Ilmiy loyiha uchun Zarafshon milliy tabiat bog'i mintaqasi sharoitida dala ekinlarining yil bo'yli zahirasi amalga oshiriladi. Universitetimiz va kafedrada amalga oshirish uchun ilmiy salohiyat, o'simlik turlari urug' zahiralari va laboratoriya ihozлari mavjud. Bular yo'qolib borayotgan flora va fauna turlarini tiklash va ko'paytirishga imkon yaratadi.
9. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi	Loyiha uchun so'ralayotgan mablag' oylik, ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish, asbob-uskunalar sotib olish harnda ilmiy adabiyotlar, tavsiya va, maqolalar chiqarishga ustama xarajatlar uchun sarflanadi. Ilova qilinayotgan loyiha smetasini moliyalashtirish esa bozorli iqtisodiyot negizida aholini yil bo'yli moddiy ne'matlar mo'l-ko'lligi, shuningdek, ichki va tashqi bozor uchun investorlar hamda ekoturizm jozibadorligni ta'min etadi.
10. Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo'jalik)	Zarafshon milliy tabiat bog'iga yaqin joylashgan faohiyat ko'rsatayotgan fermer, dehqon xo'jalagi va tomorqa yer egalari mazkur loyihani amalga oshishidan manfatdordirlar.

boshqaruvi organi	bilan	
<u>kelishilganligi</u>		

Izoh: tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu asosnomasi zarur hollarda ilmiy tashkilot (mavzu tashabbuskori) ning yuqori turuvchi vazirlik/idorasi tomonidan tashkil etiladigan muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasi natijalariga ko'ra ishlab chiqilishi mumkin;

**Asosnomani shakllantirishga
mas'ul ekspert – vazirlik (idora) ning
mas'ul xodimi (FIO, lavozimi)**

_____ (imzo)

**Vazirlik (idora)ning mas'ul
tuzilmasi (boshqarmasi) boshlig'i, (FIO)**

_____ (imzo)

sana

“ _____ ” 20 ____ y.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan innovatsion va amaliy loyihamalar tanloviiga
taklif etilayotgan ilmiy-texnik loyiha**

Ilmiy-texnik loyiha Mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija	Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi
<p>O'rta va Quyi Zarafshon vodiysida cho'llanish ta'sirini tahlil qilish va yumshatishning GATga asoslangan modelni ishlab chiqish.</p>  <p><i>Tog' yonbag'ri zonasida cho'llanish</i></p> <p></p> <p><i>Orol dengizining qurigan tubi</i></p> <p></p> <p><i>Surxondaryodagi sho'rlangan hudud</i></p>	<p>Tadqiqot shakli: Tadqiqot ilmiy-amaliy xarakteriga ega bo'lib, cho'llanishga qarshi kurash strategiyasiga, xususan, O'rta va Quyi Zarafshon vodiysida cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha barcha tadbirlarni GATga asoslangan avtomatlashgan model ishlab chiqiladi. Ushbu model monitoring, rejalashtirish va cho'llanishga qarshi kurashish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Bu samarali va aniq usuldagи texnologiyaga asoslangan innovatsion tadqiqot bo'lib, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, dala tadqiqoti va yordamchi ma'lumotlar manbalaridan to'liq foydalanadi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Bu barcha foydalanuvchilarga real vaqt rejimida cho'llanish darjasи, ko'lami, jarayoni, natijalari va oqibatlarini yumshatish strategiyalari haqidagi ma'lumotlarni yagona manba (oyna) tizimida olish imkonini beradi [Ommaviy foydalanish mumkin];</p> <ul style="list-style-type: none"> - Taklif etilayotgan model butun hududda amalga oshirilsa, albatta, mamlakatda hududlarni barqaror rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu masofaviy zondlash va GAT ilovalari sohasida yillar davomida ishlab chiqiladigan innovatsion model bo'ladi. Model Quyi va O'rta Zarafshon vodiysida so'nggi 50 yildan ortiq davomida cho'llanish jarayonining natijalarini taqdim etadi; - Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanish orqali vaziyatni miqdoriy tahlil qiladi va avtomatlashtiradi; - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagи "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, Ushbu qaror cho'llanishga qarshi kurashish va o'rmonlar va yashil qoplamlari maydonlarni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi; - Taklif etilayotgan loyiha NSDI asoslarini to'g'ri joriy etishni ta'minlash uchun GAT modellashtirishni o'z ichiga oladi. - Loyiha shuningdek, uglerod neytralligi va barqaror rivojlanish konsepsiysi majburiyatlarini bajarish uchun shamol, quyosh, geotermal energiya kabi noan'anaviy energiya manbalarini rivojlantirishni ko'zda tutgan. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish va joriy qilish: Modelni ishlab chiqish va uni sinovdan o'tkazish tajribali mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Loyihani amalga oshirishda yosh</p>	<p>1,5 mlrd so'm</p>

tadqiqotchilar, magistrlar va doktorantlar faol ishtirok etishi kutilmoqda. Bu cho'llanish va yer degradatsiyasi sohasida yosh tadqiqotchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba orttirishiga yordam beradi. Shuningdek, taklif etilayotgan tadqiqot natijasi sifatida ko‘plab sifatli ilmiy-tadqiqot nashrlarini va desertatsiyalarni bajarilishi ko‘zda tutilgan.

Ilmiy natijalarни chop etish: Intellektual mulk ob‘ektlari bilan bog‘liq hujjatlar tadqiqot natijalari asosida olinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatiga kiritilgan, Web of Science jurnalida indekslangan xalqaro nufuzli jurnallarda va Scopus ma’lumotlar bazasida chop etiladi.

**Amaliy loyihaning umumiyligi moliyalashtirish hajmi 1,5 mlrd so‘m va bajarililishi uch yilga mo‘ljallangan*

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi mavzusini shakllantirish bo'yicha
ASOSNOMA

1. Davlat buyurtmasi bo'yicha e'lon qilinadigan ilmiy loyihalar tanloviga tavsiya etilayotgan mavzu nomi	O'rta va Quyi Zarafshon vodiysida cho'llanish ta'sirini tahlil qilish va yumshatishning GATga asoslangan modelni ishlab chiqish. Development of a GAT-based model for desertification impact analysis and mitigation in the Middle and Lower Zarafshan Valley. Разработка модели на основе GAT для анализа воздействия опустынивания и смягчения его последствий в Средней и Нижней Зерафшанской долине.
2. Yo'llanma xat raqami va sanasi	
3. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (ilmiy tashkilot nomi)	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
4. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili.	Muammo va uni hal qilish strategiyalari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun O'rta va Quyi Zarafshon vodiysi uchun GATga asoslangan model ishlab chiqiladi, bu esa barcha foydalanuvchilarga cho'llanish darajasi, ko'لامи, jarayoni, natijalari va oqibatlarini yumshatish strategiyalari to'g'risida real vaqt ma'lumotlarini olish imkonini beradi. Taklif etilayotgan model, agar butun hududda amalga oshirilsa, albatta, mamlakat ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bu masofaviy zondlash va GAT ilovalari sohasida yillar davomida ishlab chiqilgan innovatsion model bo'ladi.
5. Qo'liga kiritilishi rejallashtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi.	Bu barcha foydalanuvchilarga real vaqt rejimida cho'llanish darajasi, ko'لامи, jarayoni, natijalari va oqibatlarini yumshatish strategiyalari haqidagi ma'lumotlarni yagona manba (oyna) tizimida olish imkonini beradi [Ommaviy ishlatilishi mumkin]; – Taklif etilayotgan model butun hududda amalga oshirilsa, albatta, mamlakat ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bu masofaviy zondlash va GAT ilovalari sohasida yillar davomida ishlab chiqiladigan innovatsion model bo'ladi. Model Quyi va O'rta Zarafshon vodiysida so'nggi 50 yildan ortiq davomida cho'llanish jarayonining natijalarini taqdim etadi; - Taklif etilayotgan model tadqiqotda sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalanish orqali vaziyatni miqdoriy tahlil qiladi va avtomatlashtiradi; - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, Ushbu qaror cho'llanishga qarshi kurashish va o'rmonlar va yashil qoplamlari maydonlarni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi;

	<ul style="list-style-type: none"> - Taklif etilayotgan loyiha NSDI asoslarini to‘g‘ri joriy etishni ta‘minlash uchun GAT modellashtirishni o‘z ichiga oladi. - Loyiha shuningdek, uglerod neytralligi va barqaror rivojlanish konsepsiysi majburiyatlarini bajarish uchun shamol, quyosh, geotermal energiya kabi noan‘anaviy energiya manbalarini rivojlantirishni ko‘zda tutgan.
6. Ehtiyoj (talab) ning mavjudligi (yetarliliqi) to‘g‘risida tahliliy ko‘rsatkichlar	<p>O‘zbekiston yer maydonining 85% dan ortig‘ini cho‘l va chala cho‘llar tashkil qiladi. O‘zbekistonning umumiy yer maydonining yarmini yaylovlar tashkil qiladi. Chorva mollarining haddan ziyod ko‘p boqilishi sababli, yaylovlar oxirgi 15-20 yil ichida sezilarli darajada yomonlashgan. Kuchli shamollar, tog‘ yonbag‘irlari dalalarini haydash, noto‘g‘ri sug‘orish, chorva mollarini boqish natijasida O‘zbekistonda barcha tuproq tiplari kuchli eroziyaga uchragan. Qishloq xo‘jaligida foydalilaniladigan yerlarning 70% dan ortig‘ida sezilarli darajada eroziyaga uchragan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bir necha qurg‘oqchilik bo‘lib, eng ko‘p zarar ko‘rgan hududlarda hosildorlik 50% dan 75% gacha kamaygan (FAO 2017). 2000-2001 yillardagi qurg‘oqchilik davrida boshqoli don yetishtirish 10 foizga, paxta yetishtirish 17 foizga va guruch yetishtirish 60 foizga qisqardi, natijada 130 million dollarga yaqin zarar ko‘rdi (Jahon banki 2006 yil).</p> <p>Tadqiqot sun‘iy yo‘ldosh masofadan zondlash va geofazoviy tahlildan foydalangan holda zamonaviy va innovatsion yondashuvni o‘z ichiga oladi. Bu cho‘llanishga qarshi kurashish maxanizmi ishlab chiqishga xizmat qiladi.</p> <p>Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi va suv vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ehtiyoj va talablariga xizmat qiladi.</p>
7. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya) ning xorijiy analoglaridan qiyosiy ustunligini ko‘rsatuvchi indikatorlar	<p>Ushbu loyiha (model) O‘rtal Osiyo sharoitida birinchi marotoba yaratiladi, u to‘liq GAT texnologiyasiga asoslangan yuqori darajadagi aniqlik va samaradorlikka ega hisoblanadi. Cho‘llanish va yerlarning degradatsiyasi muammosiga qarshi kurashish uchun milliy kadrlar salohiyatini oshirishda, ushbu model muhim hisoblanadi.</p>
8. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/ xom-ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi	<p>Universitetda yangi loyihani amalga oshirish uchun yetarli ilmiy salohiyat mavjud va modelga oid ma’lumotlar bazasi NASA, JAXA, DLR, ISRO va boshqalar kabi xalqaro tashkilotlardan o‘zaro hamkorlik va shaxsiy aloqalarga ega.</p> <p>Loyihani bajarish uchun universitetda masofadan zondlash va GAT laboratoriysi, ilmiy asboblar va boshqalar mavjud.</p>

9. Mavzu doirasida bajariladigan loyihaning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi	Taklif etilayotgan loyihani moliyalashtirish hajmining uch yillik smetasi ilova qilingan.
10. Taklif etilayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo'jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi va suv vazirligi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO).

Izoh: tanlovga tavsiya etilayotgan mavzu asosnomasi zarur hollarda ilmiy tashkilot (mavzu tashabbuskori) ning yuqori turuvchi vazirlik/idorasi tomonidan tashkil etiladigan muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasi natijalariga ko'ra ishlab chiqilishi mumkin.

**Asosnomani shakllantirishga
mas'ul ekspert – vazirlik (idora) ning
mas'ul xodimi (FIO, lavozimi)**

_____ (imzo)

**Vazirlik (idora)ning mas'ul
tuzilmasi (boshqarmasi) boshlig'i, (FIO)**


_____ (imzo)

sana

“_____” _____ 20 ____ y.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan innovatsion va amaliy loyihibar tanloviiga
taklif etilayotgan ilmiy-texnik loyiha**

Ilmiy-texnik loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija	Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi
<p>“Smart texnologiyalarga asoslangan inteluktual universitet axborot tizimi dasturiy ta’minotini yaratish”.</p> <p>Sxemalarni joylashtirish kerak.</p> <p>Smart kampus universiteti doirasida olib borilayotgan faoliyat: natijasida jahon andozalariga javob beradigan yetuk mutaxassislar tayorlanadi</p>	<p>Tadqiqot shakli: amaliy bo‘lib, Smart intellektual axborot tizimining yaratilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishi universitetlarning ta’lim muhitiga har tomonlama ijobjiy ta’sir etishi va o‘quv jarayonini takomillashtirishga olib keladi, ya’ni, elektron ta’lim muhitida o‘qituvchilar, va talabalarning o‘zaro muloqot va hamkorligi amalgalashiriladi. Smart ta’lim tizimida foydalanish uchun elektron ta’lim resurslari va o‘quv uslubiy majmularini loyihalash hamda IT texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari yaratiladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <p>Smart texnologiyalariga asoslangan inteluktual universitet axborot tizimi ishlashi natijasida universitetning barcha tuzulmalarida olib borilayotgan faoliyat avtomatizatsiya qilinadi. Ya’ni o‘quv-ilmiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, o‘quv jarayoniga tegishli darsliklar, o‘quv qo’llanmalar, kutubxona fondidagi adabiyotlar va kompyuter imitatcion modellar asosida yangi taqdimotlar shaklida ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish texnologiyalari ishlab chiqiladi;</p> <p>Aqlli texnologiyalar o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning individual traektoriyasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ta’lim tizimi subektlarining ijodiy va o‘zaro aloqa faoliyatini ta’minlaydi.</p> <p>Natijalarni sinovdan o‘tkazish va joriy qilish: Smart universitet texnologiyasi asosida yaratilgan dasturiy ta’minot Samarqand davlat universitetida sinovdan o‘tkaziladi va oliy ta’lim muassasalarida joriy etiladi. Ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotga guvohnoma oliish uchun intellektual mulk agentligiga hujjatlar taqdim etiladi.</p> <p>Ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot bazasida AKT yo‘nalishida (PhD) doktorlik dissertatsiyasi bajariladi va himoya qiladi. Monografiya yoziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalari bo‘yicha intellektual mulk ob’ektlariga tegishli hujjatlar olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya</p>	0,6 mlrd. so‘m



**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi 1,8 mlrd so'm va bajarilishi uch yilga mo'ljallangan*

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi mavzusini shakllantirish bo'yicha
ASOSNOMA

1. Davlat buyurtmasi bo'yicha e'lon qilinadigan ilmiy loyihalar tanloviga tavsiya etilayotgan mavzu nomi	<p>Smart texnologiyalarga asoslangan inteluktual universitet axborot tizimi dasturiy ta'minotini yaratish.</p> <p>Razrabitka programmogo obespecheniya intellektulnoy informatsionnoy sistemy Smart universiteta.</p> <p>Software Development Smart University.</p>
2. Yo'llanma xat raqami va sanasi	
3. Ilmiy loyiha mavzusi tashabbuskori (<i>ilmiy tashkilot nomi</i>)	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
4. Taklif etilayotgan mavzu doirasida ilgari bajarilgan/bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalari tahlili	Respublika oliy ta'lif muassasalarida Smart texnologiyalariga asoslangan intelutual universitet axborot tizimi ishlab chiqilmagan.
5. Qo'liga kiritilishi rejalshtirilayotgan yakuniy natija (mahsulot, ishlanma, texnologiya)ning tavsifi	<p>Smart texnologiyalariga asoslangan intelutual universitet axborot tizimi ishlashi natijasida universitetning barcha tuzulmalarida olib borilayotgan faoliyat avtomatizatsiya qilinadi. Ya'ni o'quv-ilmiy yo'naliishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, o'quv jarayoniga tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, kutubxona fondidagi adabiyotlar va kompyuter imitatsion modellar asosida yangi taqdimotlar shaklida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish texnologiyalari ishlab chiqiladi;</p> <p>Aqlii texnologiyalar o'quvchi shaxsini rivojlantirishning individual traektoriyasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ta'lif tizimi subektlarining ijodiy va o'zaro aloqa faoliyatini ta'minlaydi.</p> <p>Smart inteluktual axborot tizimining yaratilishi va samarali faoliyat ko'rsatishi universitetlarning ta'lif muhitiga har tomonlama ijobjiy ta'sir etishi va o'quv jarayonini takomillashtirishga olib keladi, ya'ni, elektron ta'lif muhitida o'qituvchilar, va talabalarning o'zaro muloqot va hamkorligi amalga oshiriladi, Smart ta'lif tizimida foydalanish uchun elektron ta'lif resurslaridan foydalangan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari yaratiladi.</p> <p>Ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotga guvohnoma oliish uchun intellektual mulk agentligiga hujjatlar taqdim etiladi.</p>
6. Ehtiyoj (talab) ning mavjudligi (etarligi) to'g'risida tahliliy ko'rsatkichlar	<p>Smart education tizimining shakllanishi va samarali faoliyat ko'rsatishi quyidagi yo'naliishlar bo'yicha universitetlarning ta'lif muhitiga IT-texnologiyalarni joriy yetishni har tomonlama pedagogik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.</p> <p>Smart texnologiyalariga asoslangan intelutual universitet axborot tizimi oliy ta'lif muassasalarining barchasida qog'osiz texnologiyaga o'tish, ma'lumotlarni tezkor olish, tahlil qilish va</p>

	o‘quv –ilmiy faoliyatni samarali tashkil qilish uchun ishlab chiqiladi.
7. Yaratiladigan yangi ishlanma (mahsulot, texnologiya) ning xorijiy analoglaridan qiyosiy ustunligini ko‘rsatuvchi indikatorlar	Smart texnologiyalariga asoslangan intellektual universitet axborot tizimi xorijiy analoglardan farqi shundan iboratki, bu tizim mahalliy dasturchilar tomonidan yaratiladi va uning hayot davomida kuzatuvi ta’milanadi bir tomonidan, ikkinchi tomondan bundan Smart texnologiyalariga asoslangan intellektual universitet axborot tiziminng xorijiy analoglari juda qimmat dasturiy ta’minot hisoblanadi. Bundan tashqari xorijiy smart intellektual axborot tizimini xarid qilinganda, uni doimiy ravishda yangilash, o‘zgartirish va takomillashtirish (xorijiy mutaxassislarni taklif qilishga) uchun yana qo‘srimcha mablag‘ sarf etiladi. Biz taklif etayotgan smart intellektual axborot tizimi xorijiy analoglaridan narxi arzonligi va takomillashtirish uchun qo‘srimcha minemal darajada harajat sarf qilinishi bilan farqlanadi.
8. Yaratiladigan yangi ishlanma (texnologiya) asosida mahsulot/xizmat ishlab chiqarishning resurs/ xom-ashyo bazasining va zarur infratuzilmaning mavjudligi	Smart texnologiyalariga asoslangan intellektual universitet axborot tizimi ishlab chiqish uchun Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat media markazida ilmiy salohiyat va moddiy-texnik baza yetarli bo‘lib, boshqa oliy ta’lim muassasalaridan ham mutaxassislarni taklif qilishga) uchun yana qo‘srimcha mablag‘ sarf etiladi. Biz taklif etayotgan smart intellektual axborot tizimi xorijiy analoglaridan narxi arzonligi va takomillashtirish uchun qo‘srimcha minemal darajada harajat sarf qilinishi bilan farqlanadi. Mazkur Smart texnologiyalariga asoslangan intellektual universitet axborot tizimi Respublika oliy ta’lim muassasalariga joriy etish uchun tavsiya etiladi.
9. Mavzu doirasida bajariladigan loyiha-ning moliyalashtirish hajmining asoslanganligi	Taklif etayotgan loyihaning moliyalashtirish hajmining uch yillik smetasi ilova qilinadi.
10.Taklif etayotgan mavzuning manfaatdor tarmoq (xo‘jalik boshqaruvi organi) bilan kelishilganligi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Izoh: tanlovga tavsiya etayotgan mavzu asosnomasi zarur hollarda ilmiy tashkilot (mavzu tashabbuskor) ning yuqori turuvchi vazirlik/idorasini tomonidan tashkil etiladigan muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasi natijalariga ko‘ra ishlab chiqilishi mumkin.

**Asosnomani shakllantirishga
mas’ul ekspert – vazirlik (idora) ning
mas’ul xodimi (FIO, lavozimi)**

(imzo)

**Vazirlik (idora)ning mas’ul
tuzilmasi (boshqarmasi) boshlig‘i, (FIO)**

(imzo)

sana

“_____” **20** y.

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan innovatsion va amaliy loyihamalar tanloviiga
taklif etilayotgan ilmiy-texnik loyiha**

Ilmiy-texnik loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija	Loyihaning yillik moliyalashtirish hajmi
